



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA
BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2022- yil
yanvar-dekabr*



NAVOIY VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Navoiy viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni **1055,5** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **21,6** ming kishiga yoki **2,1 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **517,3** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **49,0 %**), qishloq aholisi soni **538,2** ming kishi (**51,0 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

1055,5^{ming}_{kishi}

Tabiiy o'sish

+21,7^{ming}_{kishi}

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar




49,0%

Qishloq



51,0%

Aholining tabiiy harakati, kishi




█ Tug'ilganlar soni

█ Vafot etganlar soni

█ Aholining tabiiy o'sishi


Navoiy viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2022- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- yanvar holatiga



2023- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyatda doimiy aholisi sonining **30,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **57,5 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **11,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2023- yil 1- yanvar holatiga




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi

I- yanvar holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	1 033 857	1 055 479	102,1
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	150 611	156 157	103,7
Zarafshon	85 636	86 518	101,0
G'ozg'on	8 945	9 101	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Karmana	132 229	135 681	102,6
Konimex	36 773	37 348	101,6
Qiziltepa	156 551	159 161	101,7
Navbahor	116 804	118 836	101,7
Nurota	86 663	87 976	101,5
Tomdi	15 445	15 798	102,3
Uchquduq	38 375	39 142	104,7
Xatirchi	205 825	209 761	101,9

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi

2023- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Navoiy viloyatida 2023- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha **9,5** kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,2** kishiga ortgan (2021- yilda 1 kv.km.ga **9,3** kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko'rsatkichi Zarafshon shahrida **4325,0** kishi, Navoiy shahrida **2603,3** kishi kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tomdi tumanida **0,4** kishi, Uchquduq tumanida **0,8** kishi, Konimex tumanatida **4,0** kishini tashkil etgan.

Navoiy viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi


1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi



QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yil yanvar-dekabr oylarida **26266** ta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **25,1** promilleni tashkil etdi hamda bu ko‘rsatkich 2021- yilga nisbatan **0,9** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilda **26,0** promilleni tashkil etgan).


Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

	Yanvar	Qiz bolalar
O‘g‘il bolalar	999	971
Fevral	921	862
Mart	1009	939
Aprel	960	893
May	1102	1110
Iyun	1279	1106
Iyul	1180	1193
Avgust	1338	1277
Sentabr	1305	1214
Oktabr	1108	1060
Noyabr	1125	1106
Dekabr	1167	1042


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr, kishi


2022- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **60,7** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,7** % i – o‘sintalardan, **4,3** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **6,7** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,4** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,2** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **15,0** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.



VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **4156** ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti **4,0** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **4,7** promille bo'lgan).

Vafot etganlarning taqsimlanishi

	Yanvar	Ayollar
Erkaklar	144	124
Fevral		
Erkaklar	135	95
Mart		
Erkaklar	218	164
Aprel		
Erkaklar	175	136
May		
Erkaklar	208	160
Iyun		
Erkaklar	192	164
Iyul		
Erkaklar	267	213
Avgust		
Erkaklar	240	212
Sentabr		
Erkaklar	190	139
Oktabr		
Erkaklar	181	149
Noyabr		
Erkaklar	159	142
Dekabr		
Erkaklar	212	137

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2022-yil yanvar-dekabr, birlik


Xatirchi		1738	8,4 %
Navoiy sh.		1479	9,6 %
Qiziltepa		1226	7,8 %
Karmana		1109	8,3 %
Navbaxor		904	7,7 %
Nurota		724	8,3 %
Zarafshon sh.		672	7,8 %
Uchquduq		278	7,2 %
Konimex		263	7,1 %
G'ozg'on sh.		66	7,3 %
Tomdi		56	3,6 %

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **8515** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **8,2** promilleni tashkil etgan hamda 2021-yilga nisbatan **0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida **9,0** promille bo'lgan).


Nikohlarning taqsimlanishi

Yil	Shahar	Yanvar	Qishloq	
Janvar	174		213	
Fevral	212		237	
Mart	293		185	
Aprel	231		206	
May	363		277	
Iyun	400		250	
Iyul	559		500	
Avgust	666		599	
Sentabr	512		457	
Oktabr	489		443	
Noyabr	368		344	
Dekabr	273		264	

NIKOHDAN AJRALISHLAR




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti 2022-yil yanvar-dekabr, birlik




2022-yil yanvar-dekabr oylarida **1 430** ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,4** promilleni tashkil etgan hamda 2021-yilga nisbatan **0,2** promillega oshganligi kuzatildi (2021-yil yanvar-dekabr oylarida **1,2** promille bo'lgan).

Nikohdan ajralishlarning taosimlanishi



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi 2022- yil yanvar-dekabr


farzandsiz ajrashgan




2 va undan ortiq farzand bilan ajrashgan

2022- yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **31,4** % i farzandsiz, **45,1** % i bitta farzand bilan va **23,5** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.

JAMI KO'CHIB KELGANLAR



Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **8721** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **8,3** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **1,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **9,3** promille bo'lgan).

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

	Yanvar	Ayollar
Erkaklar	372	485
Fevral	376	469
Mart	311	332
Aprel	365	404
May	268	398
Iyun	342	439
Iyul	341	471
August	360	494
Sentabr	246	369
Oktabr	244	376
Noyabr	307	408
Dekabr		


Erkaklar

245


Ayollar

299

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti 2022- yil yanvar-dekabr, kishi



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida **9209** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti **8,8** promilleni tashkil etgan hamda 2021- yilga nisbatan **2,0** promillega kamayganligi kuzatildi (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida **10,8** promille bo'lgan).

Ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

Yil	Erkaklar	Ayollar
Yanvar	389	450
Fevral	418	460
Mart	324	329
Aprel	365	412
May	280	372
Iyun	366	433
Iyul	348	446
Avgust	409	497
Sentabr	319	438
Oktabr	309	440
Noyabr	364	429
Dekabr		

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya’ni me’yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘silib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayrıladı.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta’sir etgan kasalikklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnataladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 79 223-07-41